

## SOLIQ SIYOSATINING SOLIQLAR BAZASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada soliq tizimida mavjud soliq siyosati jarayonlarining olib borilishi, uning xususiyatlari soliqlar bazasiga ta'siri masalalari ko'rib chiqilgan. Xususan, soliq sohasida olib boriladigan soliq siyosatining foyda va qo'shilgan qiymat solig'i bazasidagi o'zgarishlari va ta'sir darajasini ekonometrik tahlillar orqali ko'rsatib berishga harakat qilingan. Qolaversa, soliqlarning bazasiga ta'sir etuvchi omillar xususida alohida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, soliq tizimi, soliq siyosati, foyda, daromad, soliq bazasi, soliq kodeksi, soliq imtiyozlari, xarajatlar, mustaqil o'zgaruvchui, bog'liq o'zgaruvchi.

### **ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ НА НАЛОГОВУЮ БАЗУ С ПОМОЩЬЮ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ**

**Халикчаева Садокат  
Ильхомжоновна PhD., старший  
преподаватель кафедры ТДИУ  
«Налог и налогообложение»**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается реализация существующих процессов налоговой политики в налоговой системе, влияние ее особенностей на налоговую базу. В частности, посредством эконометрического анализа была предпринята попытка показать изменения и уровень воздействия налоговой политики, проводимой в налоговой сфере на основе налога на прибыль и добавленную стоимость. Кроме того, особое внимание уделялось факторам, влияющим на налоговую базу.

**Ключевые слова:** налоги, налоговая система, налоговая политика, прибыль, доход, налоговая база, налоговый кодекс, налоговые льготы, расходы, независимая переменная, зависимая переменная.

### **EVALUATION OF THE EFFECT OF TAX POLICY ON THE TAX BASE THROUGH ECONOMETRIC MODELS**

**Khalikchaeva Sadokat Ilkhomjonovna  
PhD., senior teacher of TDIU "Tax and taxation" department**

### **ANNOTATION**

This article examines the implementation of existing tax policy processes in the tax system, the impact of its features on the tax base. In particular, an attempt was made to show the changes and impact level of the tax policy carried out in the tax field on the basis of profit and value added tax through econometric analysis. In addition, special considerations were made regarding the factors affecting the base of taxes.

**Key words:** taxes, tax system, tax policy, profit, income, tax base, tax code, tax benefits, expenses, independent variable, dependent variable.

### **Kirish**

Ma'lumki, soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish kabi harakatlar yig'indisi soliq siyosati tartiblarini tashkil etadi [1].

Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy moliyaviy siyosat turlari bilan bog'langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi. Aslida soliq siyosatining yadrosini jamiyatda ishlab chiqilgan yalpi milliy (ichki) mahsulotning va yangidan yaratilgan qiymat – milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari yo'lida markazlashtirilgan pul fondlari (asosan davlat byudjeti)ga jalb qilish masalasini hal etish yotadi. Mana shu masalaning hal etilishiga qarab fiskal va byudjet siyosatining yo'nalishlari aniqlanadi. Agar davlat milliy daromadni qayta taqsimlashda iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini haddan tashqari kamaytirsa, u holda davlat byudjet siyosatini ham shunga moslashtirish zarur bo'ladi.

Shu bilan birga, soliq siyosatining soliqqa tortish bazasiga ta'sirini tushunish siyosatchilar va iqtisodchilar uchun soliq tizimlarining samaradorligi va unumdoorligini baholash, o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan bo'shliqlar yoki kutilmagan oqibatlarni aniqlash hamda soliq islohotlariga oid zarur qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-iyunda qabul qilingan PF-162-son "Soliq ma'muriyatçilagini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi va Turizm va sport vazirligining 2022-yil 11-martdagi 3053-1-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq solinadigan bazasini alohida xarajatlari bo'yicha kamaytirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlash tartibini takomillashtirish borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolamizda keltirilgan soliq siyosatining soliqlar bazasiga ta'sini ekonometrik jihatdan tahlil qilgan holda ko'rib chiqishni taqazo etadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Soliq solish bazasi haqida izlanishlar olib borilar ekan, mavjud soliq va yig'implarning amal qilish mexanizmi, davlat byudjetiga tushish miqdori soliq solish bazasining hajmi, aniqlash tartibi va bazaga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liqligining guvohi bo'lish mumkin. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi va unga ta'sir etuvchi omillar haqida ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar, xususan, Y.Yefimova, Y.Pospelova, Y.Malish, Y.Shuvalova, V.Klimovskiy, A.Puzin, I.Mayburov, N.Milyakov, N.Smolyaninov, M.Pinskaya, O.Lazurina, Y.Lazurin, A.Yurchenko, S.Andryushenko, N.Gemmell, J.Hasseldine, P.Ozili, M.Hanlon, A.Klemm, A.Laffer, J.Stiglitz, R.Musgrave, G.Zukman, A.Goolsbee, J.Poterba, E.Sayez, R.Chetty, J.Slemrod, S.Giertz shular jumlasiga kiradi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ефимова Е.Г., Пospelова Е.Б.. Налоги и налогообложение: Учебное пособие. – М.: МИИР, 2014. – 235 с. ISBN 978-5-4349-0005-8; Малыш Е.В. Налоги и налогообложение : учеб.-метод. пособие / М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017. -112 с. ISBN 978-5-7996-2068-4; Шувалова Е.Б. Налоговые системы зарубежных стран учебно-практическое пособие / Е.Б.Шувалова, В.В.Климовский, А.М.Пузин. – М.: Изд.центр ЕАОИ,2010. -134 стр. ISBN 978-5-374-00330; Налоги и налогообложение / И.А.Майбуров, 2017, 4-е изд. -558 с; Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения / Под научн.ред. д.э.н., проф.Б.С.Барда: Морография. – М.:Издательство Палеотип, 2004.-216 с.; Миляков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник.- 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006. 509 с.; Смольянинов Н.Е. Основы теории налогов и налогообложения: учеб. пособие / Н.Е.Смольянинов; Уфимск. гос. авиац. техн. ун-т. – Уфа: УГАТУ, 2008. – 107 с.; Налоги и налогообложение: Учебное пособие / Под общей редакцией к.э.н., доцента Лазуриной О.М. – Ярославль: МФЮА, 2014. – 220 с.; Андрющенко С.Н., Налоговая база, как элемент налогообложения и основные методы ее определения // Структурно-инновационные и финансовые факторы модернизации экономики / Общ. ред. Спицина А.Т., Суслова И.Ф. – М.: Экономика, 2002. - (0,29 п.л.); Gemmell N., Hasseldine J. The tax gap: a methodological review. – Emerald Group Publishing Limited, 2012. – Т. 20. – С. 203-231.; Ozili P. K. Tax evasion and financial instability //Journal of Financial Crime. – 2020. – Т. 27. – №. 2. – С. 531-539.; Hanlon M. What can we infer about a firm's taxable income from its financial statements? //National Tax Journal. – 2003. – Т. 56. – №. 4. – С. 831-863.; Klemm A., Causes, benefits, and risks of business tax incentives //International Tax and Public Finance. – 2010. – Т. 17. – С. 315-336.;

O‘z navbatida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida ham bu mavzu doirasidagi muammolarga e’tibor qaratib kelinmoqda, masalan, Q.Yahyoyev, A.Ayubjonov, U.Salixodjayeva, O.Rashidov, I.Alimov, I.Toymuhamedov, R.Tojiyev, R.Husainov, A.Agzamov, F.Isayev dissertatsiya ishlari, darsliklari va ilmiy maqolalarida soliq bazasining ahamiyati va uni kengaytirish omillariga to‘xtalib o‘tishgan<sup>1</sup>. Qolaversa, A.Jo‘rayev va S.Shirinov ilmiy tadqiqotlarida soliq bazasini aniqlash usullari va unga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar xususida so‘z yuritgan bo‘lsa, A.Vahobov va T.Malikovning izlanishlarida ham soliq bazasi tushunchasiga yetarlicha fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Jumladan, S.Xudoyqulovning “Moliya va soliqlar” darsligida “Soliq bazasi soliq obyektining bir qismi bo‘lib, u soliqlarning barcha tamoyillarini o‘zida aks ettirib, soliq obyektidan haqiqatda soliqqa tortiladigan qismini aniqlab beradi” deya soliq bazasi xususida mulohaza yuritilganini kuzatish mumkin.

Aynan soliq bazasini aniqlash tartiblariga belgilab olingen soliq siyosati turlicha jihatdan turlicha ta’sir qilishi mumkinligi va uning implus ko‘lami, qolaversa, soliq ma’muriyatichiliga oid qarashlar esa A.J.Auerbach va M.Feldshteyn tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. U soliq siyosati qarorlari soliq solinadigan bazani aniqlash tartiblariga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqida tushunchalarni o‘rganib chiqqan bo‘lsa[2], iqtisodchi olim R.A.Musgrave ham o‘z tadqiqotlarida soliqqa tortish va uning davlat siyosatidagi rolini tadqiq qilgan. Musgraving tadqiqotlari davlat moliyasining turli jihatlariga, jumladan, soliq tizimlarini loyihalash va “optimal soliqqa tortish” konsepsiyasiga qaratilgan[3].

Yevropalik iqtisodchi olim A.Goolsbi soliq siyosati, uning biznes xatti-harakati va iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari soliq siyosatining korxonalar va jismoniy shaxslarning qarorlariga ta’siri hamda ushbu qarorlar iqtisodiy natijalarga qay darajada ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan[4].

Qolaversa, klassik iqtisodchi Artur Laffer soliq stavkalari va davlat soliq tushumlari o‘rtasidagi nazariy bog‘liqlikni Laffer egri chizig‘i deb nomlangan ilmiy ishlanmasida ta’kidlab o‘tgan. Uning qarashlariga ko‘ra, soliq tushumlarining hajmi juda past yoki o‘ta yuqori soliq stavkalarida farq qilishini, biroq, shunday bir oraliq soliq stavkasida soliq tushumlari maksimal darajaga ko‘tarilishini isbotlashga uringan. Ya’ni, olim, insoniyat past stavkali soliq siyosatida ishlashdan rag‘batlanmasliklari yoki yuqori soliqqa tortish tufayli ishlashdan tushkunlikka tushishlarini asoslab bergen. Lafferning tadqiqot ishi natijasiga ko‘ra, soliq siyosati, jumladan, optimal soliq stavkalari va soliq bazasini aniqlash bo‘yicha muhokamalarga va soliq siyosatidagi o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sish va soliq bazasiga qanday ta’sir qilishi mumkinligiga qaratilgan[5].

Taniqli iqtisodchi olim Stiglitz o‘z tadqiqotlarida soliq iqtisodini va uning tengsizlikka ta’sirini keng tadqiq qilgan. Olim soliq siyosatining turli daromad guruhlariga qanday ta’sir qilishi va iqtisodiy tenglikni oshirish va tafovutlarni kamaytirishga yordam beradigan soliq tizimlarini mexanizmlarini ishlab chiqqan bo‘lsa[6], E.Saez esa daromadlar tengsizligi va soliq siyosatini o‘rgangan iqtisodchi bo‘lib, soliq stavkalari va progressivlikdagi o‘zgarishlar, daromad va soliq bazasini taqsimlashga qanday ta’sir qilishini o‘rganib chiqqan[7].

---

Laffer A. B. Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – 1981. – Т. 1. – С. 1.; Stiglitz J. E. On liberty, the right to know, and public discourse: the role of transparency in public life. – 1999.; World Bank, Musgrave R. A. Tax Analysis in Developing Country Settings. – World Bank, 1989.; Zucman G. The hidden wealth of nations: The scourge of tax havens. – University of Chicago Press, 2015.; Goolsbee A. Public policy in an AI economy. – National Bureau of Economic Research, 2018. – №. w24653.; Poterba J. M., Summers L. H. Dividend taxes, corporate investment, and ‘Q’ //Journal of Public Economics. – 1983. – Т. 22. – №. 2. – С. 135-167.; Chetty R., Saez E. An agency theory of dividend taxation. – 2007.; Saez E., Slemrod J., Giertz S. H. The elasticity of taxable income with respect to marginal tax rates: A critical review //Journal of economic literature. – 2012. – Т. 50. – №. 1. – С. 3-50.

<sup>1</sup> Яхёев К. Соликка тортиш назарияси ва амалиёти. Дарслар. Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 2000; Ayubjonov A.H., Salixodjayeva U.A., Moliya statistikasi O‘quv qo‘llanma, 2019. - 239 b.; Rashidov O.Yu. va bosh. Pul, kredit va banklar. – Т.: Cho‘lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011; Husainov R.R. Moliya va soliqlar. – Toshkent: Voris-Nashiryot, 2014; Аззамов А.Т. Жисмоний шахсларни соликка тортишнинг фискал самарадорлиги. //Халқаро молия ва хисоб. № 1, февраль, 2019 й.; Исаев Ф.И. Камерал солик текширувларини ўтказиша солик таҳлилидан фойдаланишини такомиллаштириш. //Иқтисодиёт ва таълим, 2021 йил, 4-сон.

Biz tadqiqotimiz davomida soliq siyosatining soliq bazasiga ta'sirini baholash uchun ekonometrik metod usulidan foydalandik. Bu usuldan ko'plab xorijlik olimlar o'z tadqiqotlarida keng foydalangan.

Jumladan, iqtisodchi olim J.M.Poterba soliq siyosati, soliq siyosatining jamg'armalar, investitsiyalar va soliq bazasiga ta'sirini va davlat moliyasi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Olimning tadqiqotlari soliqqa tortishning turli jihatlarini, shu jumladan, soliq bazasini aniqlash uchun ekonometrik modellardan foydalangan. Shuningdek, olim soliq stavkasi va dividend soliqlarning o'zaro ta'sirini logit-probit va chiziqli regressiya modellaridan foydalangan holda ishlab chiqqan[8].

Qolaversa, T.Piketti daromad va boylik tengsizligini, shu jumladan, ushbu tengsizliklarni shakllantirishda soliq siyosatining rolini o'rgangan iqtisodchi. Uning tadqiqotlari progressiv soliq siyosati daromad va boylik taqsimotiga va soliq bazasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tadqiq qilgan. Olim soliq ma'lumotlarini, uzoq vaqt davomida daromad va boylik taqsimotini o'rganish uchun ekonometrik usullarni keng tahlil qilgan holda, daromad va boylik tengsizligini ekonometrik uslublar va keng qamrovli tarixiy ma'lumotlardan foydalanish orqali soliqqa tortishning rolini chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratgan. Piketti ekonometrik modellarni ishlab chiqishda bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar sifatida soliq stavkalari, soliq tuzilmalari, daromadlar va boyliklarning taqsimlanishi, boylik solig'i hamda korxonalarning kapital va o'sishi kabi omillarini tanlagan, shuningdek, ekonometrik modellarni ishlab chiqishda panel ma'lumotlari modellari, vaqtli qatorlar va logit probit modellaridan keng foydalangan[9].

Taniqli iqtisodchi olim Raj Chetti o'z tadqiqotlarida soliq bazalari va iqtisodiy xattiharakatlar o'rtasidagi munosabatlarni ekonometrik modellar asosida ishlab chiqqan. Shuningdek, soliq siyosati iqtisodiy xulq-atvorning turli jihatlariga, jumladan, ishchi kuchi taklifi, biznes va kiritilayotgan sarmoyaga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan. Qolaversa, soliq siyosatidagi muayyan o'zgarishlarni soliq bazasiga ta'sir kuchini baholash uchun keng ko'lamli ma'muriy ma'lumotlardan foydalangan. Olim ekonometrik modellarni qurishda bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar sifatida aksiyalarni chiqarish, dividendlar to'lash va investitsiya amaliyoti, soliq stavkalari va to'lov qobiliyati kabi omillardan foydalangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq siyosati va ijtimoiy choralar orasidagi bog'liqlik, soliqlarning qayta taqsimoti, investitsiya qarorlarining iqtisodiy muhitga o'zaro ta'siri hamda yuqori daromadlarining yuqori qismi soliqqa tortilishi va umumiy iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichlarini ekonometrik modellar orqali tahlil qilgan[10].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot metodologiyasi sifatida butun Jahon iqtisodiy hamjamiyat doirasi va soliq tizimida olib borilayotgan soliq islohotlari, soliq siyosati, soliq kodeksi, qonunlari va qonun osti xujjalarni chuqur o'rganish davomida analiz va sintez, iqtisodiy matematik usul hisoblangan SEM regression modeli, ilmiy mushohada, ma'lumotlarni guruhlash hamda klassifikatsiyalash orqali nazariy tahlil usullaridan keng foydalanylган.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

Soliq siyosatining soliqlar bazasiga ta'sirini baholashda SEM regression modelidan foydalangan holda ish olib borilgan. Bunda, SEM regressiya modellari nazariyalarni baholash, sababiy bog'lanishlarni baholash va ijtimoiy fanlar, psixologiya, ta'lim va biznes sohalarini qamrab oluvchi turli sohalarda o'lchan vositalarini qurish va tasdiqlash uchun keng qo'llaniladi[11].

Tadqiqot bo'yicha Soliq qo'mitasining o'n besh yillik ma'lumotlar to'plamidan olingan ko'rsatkichlar yordamida ekonometrik tenglama ishlab chiqilgan (2008-2022 yillar). Ishlab chiqilgan ekonometrik tenglama bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilarni mos ravishda quyidagicha ifodalaydi:

$y$  – qo'shilgan qiymat solig'i bazasi (yuridik shaxslar) – bog'liq o'zgaruvchi;

$x_1$  – foyda solig'idan soliq imtivozi (yuridik shaxslar) – mustaqil o'zgaruvchi;


$x_2$  – qo'shilgan qiymat solig'idan soliq imtivozi (yuridik shaxslar) – mustaqil o'zgaruvchi.

Tadqiqot bo'yicha quyidagi gipotezalar ishlab chiqildi:


$H_0$  gipoteza – milliy iqtisodiyot soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlash maqsadida, foyda solig‘idan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozining oshishi qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasi ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasi foyda solig‘i imtiyozi hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan imtiyozi o‘rtasida bog‘liqlikni ifodalaydi;

$H_1$  gipoteza – milliy iqtisodiyotning soliqqa tortish tizimida soliq bazasini aniqlashda, foyda solig‘idan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozining ortishi qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasining kengayishiga olib kelmaydi. Bunga ko‘ra, qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasida foyda hamda qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozining bog‘liqlik mavjud emas.

Tadqiqotda tovar realizatsiyasidan olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasi unga ta’sir etuvchi omillar foyda solig‘idan soliq imtiyozi va qo‘shilgan qiymat solig‘idan soliq imtiyozi ko‘rsatkichlarining tahliliy grafik jadvali quyidagi chizmalarda aks etgan (1 va 2-rasmlarga qarang).



1-rasm. Bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarning grafik matritsasi<sup>1</sup>




2-rasm. Bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarning scatter grafik jadvali<sup>2</sup>

Yuqoridagi 2.27 va 2.28-rasmlardan ko‘rinib turibdiki, tasvirlangan vizual grafik jadvallar aniq zinchlik holatini ko‘rsatadi. Bu bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi muhim

<sup>1</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

<sup>2</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

korrelyatsiyani bildiradi. Ushbu zichlik namunasi konsentratsiya zichligining muhim hodisasini ta'kidlab, grafikning muayyan hududlarida ma'lumotlar nuqtalarining to'planish moyilligini anglatadi.



### 3-rasm bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi deskriptiv statistik jarayon.<sup>1</sup>

3-rasmda ko'rsatilgan ma'lumotlarga ko'ra, tavsiflovchi statistika ma'lumot nuqtalarining 75% ga bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar tomonidan hisobga olinishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, ma'lumotlar nuqtalarining to'rtadan uch qismi taqdim etilgan ma'lumotlar asosida hisoblanishi yoki tushunilishi mumkin bo'lgan diapazonda joylashgan. Bu ma'lumotlarning muhim qismi statistik jihatdan tavsiflanishi yoki berilgan kontekstda aniq belgilangan munosabatni ko'rsatishini anglatadi. Shuningdek, tadqiqot bo'yicha navbatdagi qadamda bog'liq o'zgaruvchilar va mustaqil o'zgaruvchilar har biri bo'yicha o'zaro korrelyatsion matritsasini tekshirildi (2.11-jadvalga qarang).

### 1-jadval.

**Bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlikning korrelyatsion matritsasi<sup>2</sup>**

Variables	(1)	(2)	(3)
(1) y	1.000		
(2) x <sub>1</sub>	0.520 (0.019)	1.000	
(3) x <sub>2</sub>	0.605 (0.017)	-0.111 (0.694)	1.000

Tadqiqot natijalariga asoslanib, 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi kuchli, sezilarli va o'rtacha korrelyatsion bog'liqlikni namoyish etdi.

Tadqiqotning navbatdagi qadamida SEM regression tenglamasi asosiy o'zgaruvchilarni, Chi-kvadrat testi, qiyosiy moslik indeksi (CFI), yaqinlashuvning o'rtacha kvadrat xatosi (RMSEA) va standartlashtirilgan o'rtacha kvadrat qoldiq (SRMR) testlari yordamida ekonomerik model ishlab chiqildi va baholandi.

Tadqiqot bo'yicha SEM regression tenglamasi ko'rsatkichlari tahlili qilindi (2-jadvalga qarang).

<sup>1</sup> Stata dasturi asosida mualif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

<sup>2</sup> Stata dasturi asosida mualif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

## 2-jadval.


Qo'shilgan qiymat soliq bazasi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida SEM regression tenglamasi<sup>1</sup>

	OIM					[95%Conf	Interval]
	Coef.	Std.Err.	z	P>z	.	.	.
<b>Structural</b>							
<b>y &lt;-</b>							
<b>x1</b>	0.444	0.147	3.030	0.002	0.156	0.731	***
<b>x2</b>	0.370	0.091	4.040	0.000	0.191	0.549	***
<b>_cons</b>	0.922	0.867	1.060	0.088	-0.778	2.622 *	
<b>var(e.y)</b>	0.009		0.003	0.004	0.019		

2-jadval bo'yicha SEM regression modeliga ko'ra mustaqil o'zgurvchilar koeffitsiyentlari mos ravishda **0,44** va **0,37** qiymatlarini tashkil etgan. Bundan tashqari, tadqiqotda o'tkazilgan strukturaviy tenglamani modellashtirish (SEM) tahliliga ko'ra, asosiy gipoteza ( $H_0: y = 0$ ) ahamiyatli. Binobarin, alternativ gipoteza rad etiladi va e'tibor statistik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy gipotezaga ( $H_1: y \neq 0$ ) qaratiladi. Tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan SEM regression modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$y = 0.44x_1 + 0.37x_2 + 0.99 \quad (3)^2$$

Shuningdek, SEM regression modeli chizma ko'rinishi va test ko'rsatkichlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:



#### 4-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i bazasi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi SEM regression tenglamasi<sup>3</sup>

4-rasmida tasvirlanganidek, SEM regressiya modelining strukturaviy natijasi keltirilgan. Bundan tashqari, SEM regressiya modeli uning ishlashi bo'yicha ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Modelning o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni baholash va tekshirish qobiliyati va uning umumiy muvofigligi quvonarli deb topildi.

SEM regressiya modelining samaradorligi odatda turli statistik o'lchovlar va tekshiruvlar, jumladan, Chi-kvadrat testi, qiyosiy moslik indeksi (CFI), yaqinlashishning o'rtacha kvadrat xatosi (RMSEA) va standartlashtirilgan o'rtacha kvadrat qoldiq (SRMR) orqali baholanadi.

SEM regressiya modeli ushbu ko'rsatkichlarga asoslangan ma'lumotlarga ijobiy mosligini ko'rsatdi, bu esa kuzatilgan munosabatlarni samarali tushuntirib, tadqiqot gipotezasini mazmunli tushunish imkonini berdi. Tadqiqotga ko'ra, milliy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat soliq bazasi

<sup>1</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

<sup>2</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

<sup>3</sup> Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha o'rganish uchun olib borilgan tahlillar va xulosalar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qo'shilgan qiymat soliq bazasi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtaida ekonometrik tenglama

$$y=0.44x_1+0.37x_2+0.99 \text{ ga ko'ra,}$$

Foyda solig'idan soliq imtiyozi **1 %**ga ortishi, qo'shilgan qiymat solig'i bazasining **0,44 %** kengayishiga sabab bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'idan soliq imtiyozining **1 %**ga ortishi esa qo'shilgan qiymat solig'i bazasining **0,37 %** ortishiga olib keladi.

### Xulosa

Yuqoridagi tadqiqotimiz natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, soliq siyosatining daromad olish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, adolatni ta'minlash, qonunchilikka rioxalash soddallashtirish va mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish borasida amalga oshirgan tizimli chora-tadbirlari majmuasi soliqqa tortish bazasida o'z natijasi bilan namoyon bo'ladi. Bu harakatlar soliq siyosatiga mas'ul bo'lgan mutaxassislardan soliq tizimida adolat va samaradorlikni saqlab turadigan, yuqori daromadga bo'lgan ehtiyoj va iqtisodiy maqsadlar o'rtaida muvozanatni barqarorlashtiradigan ehtiyyotkorlik siyosatini ishlab chiqishni talab qiladi.

Bunda soliq imtiyozi va QQS bazasi munosabati shuni ko'rsatadiki, foyda solig'idan soliq imtiyozi 1 %ga oshirilganda, qo'shilgan qiymat solig'i bazasining mos ravishda 0,44 % o'sishiga erishiladi. Ya'niki, korxonalar o'z foydalariga nisbatan yuqori soliq imtiyozlaridan foydalanganda, ishlab chiqarish va kengaytirishga ko'proq sarmoya krita oladilar. Bu esa QQSga tortiladigan tovar va xizmatlarning yuqori qiymat yaratishiga olib keladi. Natijada, soliq imtiyozlarining ko'payishi va QQS bazasining o'sishiga imkon berishi, ular orasida ijobjiy bog'liqlikni ta'kidlaydi.

Qolaversa, soliq to'lashdan ozod qilish va QQS bazasi munosabati shuni ko'rsatadiki, qo'shilgan qiymat solig'idan soliq imtiyozlarini 1 %ga oshirish QQS bazasini 0,37 % kengayishiga sabab bo'ladi. Bu shundan dalolat beradiki, muayyan tovar yoki xizmatlarga nisbatan ko'proq soliq imtiyozlari berilishi yangidan yaratilgan qo'shilgan qiymatni soliqqa tortiladigan qismini qisqartirishi natijasida, hukumat uchun QQS tushumlari kamayadi. Aksincha, agar soliq imtiyozlari qisqartirilsa yoxud bekor qilinsa, iqtisodiy faoliyatning katta qismi QQSga tortiladi. Bu esa QQS bazasining kengayishiga va QQS tushumlari potensial oshishiga olib keladi.

Ekonometrik tenglama xulosasiga ko'ra, soliq imtiyozlari va soliqdan ozod qilish siyosatidagi o'zgarishlar QQS bazasiga ta'sirini ifodalaydi. Bu shunday ma'noni beradiki, QQS va foyda solig'i siyosatini o'zgartirish davlat tomonidan undiriladigan QQS tushumlariga va soliq to'lovchilarning zimmasidagi umumiy soliq yukiga ta'sir qiladi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

[1] Клейменова М.О. Налоговое право: учебное пособие. - Московский финансово-промышленный университет "Синергия", 2013 г. <http://ivo.garant.ru/#/document/57650527>

[2] Alan J. Auerbach., Martin Feldstejn., "Handbook of Public Economics volume 4", - October 21, 2002. Editors: A.J. Auerbach, M. Feldstein. Hardback ISBN: 9780444823151.

[3] Musgrave R. A. Tax Analysis in Developing Country Settings. – World Bank, 1989.

[4] Goolsbee A., Public policy in an AI economy. – National Bureau of Economic Research, 2018. – №. w24653.

[5] Laffer A. B. Government exactions and revenue deficiencies //Cato J. – 1981. – Т. 1. – С. 1.

[6] Stiglitz J. E. On liberty, the right to know, and public discourse: the role of transparency in public life. – 1999.

- [7] Saez E., Slemrod J., Giertz S. H. The elasticity of taxable income with respect to marginal tax rates: A critical review //Journal of economic literature. – 2012. – Т. 50. – №. 1. – С. 3-50.
- [8] Poterba J. M., Summers L. H. Dividend taxes, corporate investment, and ‘Q’ //Journal of Public Economics. – 1983. – Т. 22. – №. 2. – С. 135-167.
- [9] Piketty T., Saez E. The evolution of top incomes: a historical and international perspective //American economic review. – 2006. – Т. 96. – №. 2. – С. 200-205.
- [10] Chetty R., Saez E. An agency theory of dividend taxation. – 2007.
- [11] Курсовая: "Неоинституциональный подход к государственному регулированию экономики" <http://westud.ru/work/208158/Neoinstitucionalnyj-podxod-k-gosudarstvennomu>.